

**YANGI TAHRIRDAGI JAMOAT XAVFSIZLIGI KONSEPSIYASINING
MAZMUN-MOHİYATI**

Alijonov Ibrohimjon Rustamjon o‘g‘li

Jamoat xavfsizligi universiteti

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi yu.f.b.f.d.(PhD)

Jxu@mail.uz; 71-230-45-11(1037)

Anotatsiya: *Mazkur maqolada Jamoat xavfsizligi universiteti tomonidan yaqin, o‘rta va uzoq istiqbolda jamoat xavfsizligiga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zamonaviy xavf-xatar va tahdidlar tahlili asosida ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi jamoat xavfsizligi konsepsiyasining mazmun-mohiyati yoritilgan, subektlar tasniflangan, amalga oshirish mexanizmi belgilangan.*

Kalit so‘zlar: *jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, jamoat joyi, jamoat xavfsizligiga xavf-xatar, tahdid va tajovuz.*

Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi tomonidan xorijiy tajriba hamda dunyoda va mamlakatimizda jamoat xavfsizligiga yuzaga kelayotgan asosiy xavf-xatar va tahdidlar tahlili asosida yangi tahrirdagi “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” loyihasi ishlab chiqildi.

Quyida mazkur konsepsiyaning mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz.

I. O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta‘minlashning joriy holati tahlili

Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta‘minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishidagi ishlarni **“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”** tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi[1]⁸.

Ilk bor, O‘zbekiston Respublikasining **Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi tasdiqlandi**, mazkur tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjat bilan **9 ta** davlat idoralarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan uzviy hamkorlikda har qanday xavf-xatarlarga **barvaqt javob berish mexanizmlari belgilab berildi**[2]⁹.

⁸ U.Qodirov, “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tadbirlarni inson manfaatlariga xizmat qilish” tamoyilidan kelib chiqib tashkil etish samaradorligi”, <https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6805-jamoat-xavfsizligini-ta-minlash-bo-yicha-tadbirlarni-%E2%80%9Cinson-manfaatlariga-xizmat-qilish%E2%80%9D-tamoyilidan-kelib-chiqib-tashkil-etish-samaradorligi.html>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenining 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni//<https://lex.uz/docs/5749291/> (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy

Buning natijasida O‘zbekistonning **xavfsiz davlat** sifatidagi **reyting** va **indekslardagi o‘rni yaxshilanib bormoqda, jumladan:**

butunjahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project-AQSH) tashkiloti tomonidan har yili o‘tkaziladigan huquq ustuvorligi indeksining “Tartib va xavfsizlik indikatori” bo‘yicha O‘zbekiston, dunyoda **142 ta** davlat orasida **17-o‘rinni**, Osiyoda **49 ta** davlat orasida **5-o‘rinni**, Markaziy Osiyo va Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida **1-o‘rinni egalladi**[3]¹⁰;

Buyuk Britaniyaning Iqtisodiyot va tinchlik institutining **“Safety Perceptions Index”** xavfsizlikni baholash indeksi bo‘yicha 2021-2024 yillar oralig‘ida **eng yaxshi natijani** qayd etib **146ta** mamlakat orasida **29-o‘rinni** egallab **eng xavfsiz davlat deb tan olindi**[4]¹¹;

“Transparency International” xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan 2024 yil yakunlari bo‘yicha **Korrupsiyani qabul qilish indeksida** mamlakatimiz 180 ta davlat orasida **121-o‘rinni**, **Jahon Boshqaruv sifati indikatorlarining korrupsiyani nazorat qilish** yo‘nalishida **0,81 ball** bilan **213 ta** davlat orasida **161-o‘rinni egallagan**[5]¹²;

MDH davlatlari orasida O‘zbekiston har **100 ming aholiga** nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni (**359,5 ta**) bo‘yicha **eng xavfsiz davlatlardan biri bo‘lib qolmoqda**[6]¹³.

Ayniqsa, mahalla jamoatchiligining faol ishtirokiga tayangan holda jinoyatni jilovlashning **“O‘zbek modeli”** xalqaro hamjamiyatning **yuksak e‘tirofiga sazovor bo‘ldi**.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas‘ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini **“Barcha say-harakatlar inson qadri uchun”** degan ustuvor g‘oya asosida **yanada takomillashtirish** zaruriyatini **keltirib chiqarmoqda**.

Шу нуқтаи назардан янги таҳрирдаги жамоат хавфсизлиги концепсиyasi jamoat xavfsizligi sohasidagi barcha asosiy xavf-xatar va tahdidlarni qamrab olgan holda ularga qarshi kompleks kurashish uchun **konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi**.

II. Jamoat xavfsizligiga yuzaga kelayotgan asosiy tahdidlarning tahlili

Dunyoda va mamlakatimizda jamoat xavfsizligiga **yaqin, o‘rta va uzoq istiqbolda** yuzaga kelishi **mumkin bo‘lgan** asosiy **xavf-xatar** va **tahdidlar tahlili** asosida quyidagi **xulosaga kelishimiz mumkin:**

yaqin istiqbolda:

Birinchidan, ilmiy o‘rganishlarga ko‘ra, **so‘nggi to‘rt yilda** (2021 – 2024 y.) O‘zbekistonda oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlarning (33 foizga) **kamayish tendensiyasi** kuzatilgan bo‘lsa-da, **ayrim turdagi** jinoyatlar hamda **ayrim**

bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son; 16.01.2024 y., 06/24/10/0031-son)

¹⁰ <https://worldjusticeproject.org/>

¹¹ chrome-

extension://efaidnbmnnnibpcajpcgglefindmkaj/https://www.visionofhumanity.org/wp-content/uploads/2023/02/SPI-2023-2.pdf

¹² <https://anticorruption.uz/oz/article/transparency-international-2022-yilgi-korrupsiyani-qabul-qilish-indeksini-elon-qildi>

¹³ <https://rost24.uz/oz/news/2012>

toifadagi shaxslar jinoyatchiligining **salmog'i yuqoriligicha qolgan, jumladan 2024 yilda[7]¹⁴:**

a) jami **132 298 ta** jinoyatning **80 foizini – 44,4 %** (58 800tasi) kiberjinoyatlar, **9,3% (12 278 tasi)** giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi, **9% (11 931 tasi)** o'g'rilik, **7,1 % (9 365tasi)** yo'l-transport hodisalari, **6,2% (8 216tasi)** firibgarlik, **4,8% (6 322tasi)** qasddan badanga shikast yetkazish **jinoyatlari tashkil etgan;**

b) jinoyat sodir qilgan shaxslar (**59 951 nafar**) soni **2,5 foizga** yoki **1 461 nafarga ortgan,** jinoyat sodir etgan shaxslarning **88 foizini** erkaklar, **12 foizini ayollar** tashkil etib, shundan **37,7 foizi yoshlar, 5,6 foizi voyaga yetmaganlar** bo'lsa, jinoyatlar **10,9 foiz** holatda **ishsizlar** hamda **10,8 foiz** holatda **muqaddam sudlanganlar** tomonidan sodir etilgan;

v) **oila-turmush doirasida 2 764 ta jinoyat** sodir etilgan sodir etilgan, shundan **1 077tasi oilaviy (maishiy) zo'ravonlik, 1 074 tasi badanga shikast yetkazish** va **155 tasi qotillik** jinoyatlari hisoblanadi, **eng achinarlisi,** qayd etilgan, **426 ta qotillikning 42,6 foizi** va **1 074 ta badanga shikast yetkazishning 17 fioizi oila-turmush doirasida sodir etilgan;**

g) sodir etilgan jinoyatlarning **63 foizi iqtisodiy sohaga** to'g'ri kelib, **korrupsiya sohasida 6 898 nafar shaxs** tomonidan **5 716 ta jinoyat sodir qilingan** va buning oqibatida davlat manfaatlariga **12,4 trln so'm miqdorida zarar yetkazilgan.** E'tiborli jihati, **506 nafar** muqaddam **korrupsiyaga oid jinoyatlari** uchun **javobgarlikka tortilgan** qayta **korrupsiyaga oid** jinoyat sodir etilib davlat manfaatlariga **2 trln 43 mlrd so'm zarar yetkazilgan.**

d) **2024 yilda** respublikada yo'l-transport xodisasi bilan bog'liq **9 365 ta jinoyat** sodir etilgan, buning **2 203 nafar** inson **halok bo'lgan** va **8901 nafar** kishi tan jarohati olgan, bundan tashqari **yo'l-transport hodisalari** natijasida **har kuni o'rtacha 6 ta inson vafot etmoqda.**

Ikkinchidan, tahlillarga ko'ra, 2024 yilda kiberjinoyatlar dunyo iqtisodiyotiga, **9,5 trln AQSH dollari** (2022 yilda **26 mlrd. AQSH dollari**) miqdorida zarar keltirgan (2025 yil yakuni bo'yicha **10 trln AQSH** dollariga yetishi prognoz qilinmoqda), O'zbekistonda kiberjinoyatlar **603 mlrd so'm zarar keltirib,** 2019 yilda **863 ta kiberjinoyat** sodir etilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib **58 800taga** yetib umumiy jinoyatchilikning **44,4%ni** tashkil qilgan. 2025 yilning 9 oyi davomida **46 642 ta kiberjinoyat sodir etilib,** umumiy jinoyatlarning **47%ni tashkil qilgan** (2025 yilda yana **10-15 %ga o'sishi prognoz qilingan**)[8]¹⁵.

O'zbekistonda **2025 yilning 9 oyi** davomida axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan **jinoyatlarning 191 nafari (yoki 11 foizi)** voyaga yetmaganlar va **1 194 nafari (yoki 66 foizi)** yoshlar tomonidan sodir etilganligi, **yosh avlodning** axborot texnologiyalari

¹⁴ <https://stat.uz/uz///> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Ichki ishlar vaziriligi ma'lumotlari asosida

¹⁵ <https://csec.uz/uz/news/axborot-xavfsizligi-yangiliklari/2024-yilga-kelib-kiber-jinoyatchiliklardan-moliyaviy-zarar//> "Kiberxavfsizlik markazi" DUK

bo'yicha **bilimlari jinoyat quroliga aylanganligidan** hamda bu **tendensiya yanada o'sib borishidan dalolat bermoqda**[9]¹⁶.

Uchinchidan, o'tkazilgan ilmiy o'rganishlarga ko'ra **jamoat xavfsizligiga** quyidagi **ehtimoliy xavf-xatarlar aniqlangan, jumladan**[10]¹⁷:

a) aholining **ijtimoiy-iqtisodiy** (elektr energiyasi, gaz, suv ta'minoti, ishchi o'rinlari va bosh.) **ehtiyojlarining yetarli darajada qondirilmashligi**;

b) **quyi** (mahalla va tuman) **darajada** aholining **murojaatlari** bilan ishlash **tizimidagi muammolar**, muammolarning o'z vaqtida **hal etilmasligi** va murojaatchilarga **yetarli darajada tushuntirish berilmasligi**;

v) aholi turmush tarzida **diniy muhit va radikallashuvning** ortib borayotganligi;

g) **aholining demografiyasiga** nisbatan **ijtimoiy infratuzilmaning nomutanosib rivojlanganligi** (maktab, bog'cha, shifoxona, avtoturargoh va boshqa obektlarning yetishmasligi);

d) **poytaxt** va **yirik shaharlardagi ichki migrasiya** jarayonlarining **tartibga solinmasligi** natijasida **ijtimoiy yuklamaning ortishi**, shu jumladan, **yo'llardagi yuqori darajadagi tirbandliklarning ortishi**;

ye) aholining ayniqsa, **voyaga yetmaganlar** va **yoshlarning huquqiy ongi** va **madaniyatining yetarli emasligi**;

yo) **tabiiy** va **texnogen** xavfli **obektlarda**, shuningdek **bozorlar** va **savdo komplekslarida texnika** hamda **yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilmasligi**;

j) hududlardagi **sanitariya-epidemiologiya** nazorati va **profilaktikasi** tizimidagi **muammolar**.

o'rta istiqbolda:

birinchidan, globallashuv va axborot-kommunikasion texnologiyalarning jadal rivoji jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini yemiruvchi **ijtimoiy-madaniy harakatlar (submadaniyatlar)**, diniy-ekstremistik oqimlar, axborot-psixologik ta'sir vositalari va ijtimoiy degradasiyani targ'ib etuvchi layfstayllarning keng tarqalishiga olib kelmoqda, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda **“vloger”** va **“influenser”** ko'rinishidagi shaxslar orqali axloqsizlikni **“imidj”** sifatida ko'rsatish tobora **avj olmoqda**[11]¹⁸.

Ikkinchidan, dunyoning ayrim mamlakatlarida **aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari** o'z vaqtida hal etilmaganligi, birlamchi **ehtiyojlari qondirilmaganligi**, shuningdek **zamonaviy yoshlarni “Avlodlar nazariyasi”** asosida chuqur o'rganib, yoshlar bilan ishlash bo'yicha **zamonaviy yondashuv** va **strategiya ishlab chiqilmaganligi**

¹⁶ <https://stat.uz/uz///> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Ichki ishlar vaziriligi ma'lumotlari asosida

¹⁷ “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligiga mavjud xavf-xatar va tahdidlarga oid ma'lumotnoma”, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, T.-2024-yil.

¹⁸ B.I.Matchanova, “Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli”// <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-naviy-axloqiy-qadriyatlarning-jamiyat-ijtimoiy-barqarorligidagi-rol>

natijasida ayrim mamlakatlardagi **ijtimoiy-iqtisodiy muammolar** zahirida ommaviy tartibsizliklar **yuzaga kelgan**[12]¹⁹.

uzoq istiqbolda:

Birinchidan, BMTning ekologik xavfsizlik bo'yicha hisobotida, insoniyat uchun kelgusi **o'n yillikda** quyidagi global ekologik tahdidlar keltirib o'tilgan[13]²⁰:

- global iqlim o'zgarishi;
- havoning ifloslanishi;
- ozon qatlamining yemirilishi;
- muzlarning erishi, chuchuk suv zaxiralarining kamayishi va suvning ifloslanishi;
- atrof-muhitni chiqindilar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Ekologik o'zgarishlar va ularning oqibatlari turli **surunkali kasalliklarning** kelib chiqishiga, **tabiiy resurslarning kamayishiga**, shuningdek turli **ijtimoiy va harbiy nizolarni** kelib chiqishiga olib kelishi mumkin.

Global ekologik muammolar O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'q, **masalan**:

a) Toshkent shahri havo sifati indeksi (AQI+) va atmosfera ifloslanishi darajasi bo'yicha Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'rnatilgan meyordan bir necha barobar xavfli bo'lib dunyo mamlakatlari orasida **birinchi o'nlikdan o'rin olgan**;

b) so'nggi 15 yilda aholi jon boshiga yillik suv xajmi **3048m³ dan 1589m³ gacha kamaygan**, jahon banki ma'lumotiga ko'ra, **2050 yilga** borib O'zbekistonda joriy **suv tanqisligi besh barobarga** (2 km³ dan 11-12 km³ gacha), suvga bo'lgan talab esa **59 km³ kmdan 62-63 km³ gacha oshadi** va mavjud suv resurslari **57 km³ dan 52-53 km³ gacha** kamayadi. Bundan tashqari chuchuk suv taqchilligi **yalpi ichki mahsulotning 11%ga pasayishiga** olib kelishi **prognoz qilinmoqda**[14]²¹;

v) BMTning prognoziga ko'ra, **2050 yilga kelib** ekologik muammolar natijasida yer sayyorasida ekologik migrantlar soni **216,0 mlndan 1,2 mlrdga** yetadi, bu ko'rsatkich Markaziy Osiyoda **2,4mlnga yetishi kutilmoqda**, bu esa o'z navbatida bir qator **ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin**[15]²².

Ikkinchidan, 2024-yilda Global Ochlik Indeksi (Global Hunger Index, GHI) bo'yicha, O'zbekiston 2021 – 2023 yillarda **21 ball** bilan **eng yuqori natijalarni qayd etib**, Markaziy Osiyoda **oziq-ovqat xavfsizligi** borasida **yetakchilik qilmoqda**. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi siyosiy va institusional yondashuvlarining samaradorligini ko'rsatadi[16]²³.

¹⁹ “Ayrim davlatlarda sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar oid ma'lumotnoma”, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, T.-2025-yil.

²⁰ <https://uzbekistan.un.org/uz/178016-bmt-inson-xavfsizligi-bo%CA%BCyicha-ko%CA%BCp-tomonlama-sheriklik-trast-jamgarmasining-yillik-hisobot//Birlashgan-Millatlar-Tashkiloti-rasmiy-saxifasi>

²¹ A.G.Gulamov, N.N.Shamsiyev, «O'zbekiston Respublikasida suv xavfsizligini ta'minlashning bugungi holati»// “Tizimli tadqiqotlar” ilmiy-tahliliy jurnali, Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi, Toshkent, 2024 yil, B-36.

²² <https://gov.uz/oz/news/view/4035> //

²³ <https://gov.uz/oz/agro/news/view/48883>

Shu bilan birga oziq-ovqat xavfsizligi sohasida **bir qator xavf-xatar va tahdidlar saqlanib qolmoqda, jumladan:**

a) iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yer sho'rlanishi (yoki eroziyasi) va boshqa omillar ta'sirida **hosildorlikning tushib ketishi;**

b) oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarishda **pestisidlar (2025 yilga kelib 85 foizga ortgan), gen-modifikasialangan hosilalardan,** boshqa turli kimyoviy va biologik **birikmalarni qo'llashning ortishi;**

v) dunyoda ortiqcha vazn olish (semirish) holatlarining ortishi (**Butun jaxon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyo aholisining 20 foizi ortiqcha vaznga ega bo'lsa, 2050 yilga kelib bu ko'rsatkich 60 foizdan ortadi**) inson salomatligi **uchun jiddiy xavf solmoqda.**

Yuqorida sanab o'tilgan xavf-xatar va tahdidlar kelgusida:

- i. suv va oziq-ovqat tanqisligiga;
- ii. ekologiya va atrof-muhit ifloslanishining qaytarib bo'lmaz nuqtasiga yetishiga;
- iii. yuqumli, surunkali va pandemik kasalliklarning tarqalishiga;
- iv. aholining sog'lig'i va genofondining buzilishiga;
- v. aholi noroziligining o'sishi va ommaviy tartibsizliklarga;
- vi. ijtimoiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarining yemirilishi va jamiyatning degradatsiyasiga;
- vii. energetika, oziq-ovqat va boshqa sohalarda o'zga davlatlarga bog'liqlikning ortishi orqali suverenitetni yo'qotishiga;
- viii. iqtidorli yoshlar, ziyolilar va olimlarning mamlakatdan chiqib ketishiga;
- ix. jinoyatchilikning, xususan kiberjinoyatchilikning keskin o'sishiga;
- x. pul qadrsizlanishi, iqtisodiy zanjirlarning uzilishiga, qashshoqlik darajasining ortishiga va boshqa **og'ir oqibatlariga olib kelishi ehtimoli mavjud.**

III. Konsepsiyaning maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash Konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya)ning **asosiy maqsadi**, milliy xavfsizlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi **davlat siyosatini**, jamoat xavfsizligiga **asosiy tahdidlarni** va ularga **qarshi kurashish mexanizmlarini belgilash** hamda ijtimoiy **munosabatlarni tartibga solish** hisoblanadi.

Konsepsiya quyidagi **chora-tadbirlarni** amalga oshirish orqali **ro'yobga chiqariladi:**

- 1) jamoat xavfsizligiga asosiy **tahdidlar belgilab olinadi;**
- 2) tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha **davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilanadi** va amalga oshiriladi;
- 3) jamoat xavfsizligini ta'minlash **subektlari tasniflanadi** va vazifalari belgilanadi;
- 4) jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha manzilli **Strategiyalar va yo'l xaritalari ishlab chiqiladi;**
- 5) mavjud xavf-xatar va tahdidlar asosida Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida **maqsadli fundamental va innovasion ilmiy-amaliy tadqiqotlar** chuqurlashtiriladi;
- 6) Jamoat xavfsizligiga xavflarning holati va darajalarini belgilovchi **mezonlarni va asosiy ko'rsatkichlar (indikatorlarni)** ishlab chiqiladi;

7) jamoat xavfsizligining ta'minlanganligi holatini tizimli ravishda **monitoring qilish** va **baholab borish** uchun jamoat xavfsizligi bo'yicha **Muvofiqlashtiruvchi Kengash tuziladi** va faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, agarda qonunchilik hujjatlarida o'zgacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lsa mazkur **Konsepsiyaga muvofiqlashtirilishi lozim.**

Konsepsiyada jamoat xavfsizligi sohasidagi bir qator tushunchalarga huquqiy ta'rif berilgan, **jumladan:**

jamoat xavfsizligi – milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi bo'lib, jamiyatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi xavf-xatarlar, tahdidlar va tajovuzlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

jamoat xavfsizligiga xavf-xatarlar – jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli bo'lgan holat, hodisa yoki tahlikali vaziyat va jarayonlar;

jamoat xavfsizligiga tahdidlar – bu jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug'diruvchi sabablar, shart-sharoitlar, voqea, hodisa, jarayon va holatlar;

jamoat xavfsizligiga tajovuzlar – bu jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga real xavf soluvchi, ijtimoiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi hamda ziyon yetkazuvchi voqea, hodisa va jarayonlar.

jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari – bu qanoatlantirilishi jamiyatning izchil rivojlanishi, uning xavfdan holi holatda mavjud bo'lishi va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishini, ishonchli kafolatlaydigan ehtiyojlar majmuidir;

jamoat xavfsizligini ta'minlash – jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy va boshqa chora-tadbirlar majmui;

jamoat xavfsizligini ta'minlash subektlari – jamoat xavfsizligini ta'minlashda bevosita (yoki bilvosita) ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalar, jamoat birlashmalari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa organlar va tashkilotlar, shuningdek jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi jismoniy va yuridik shaxslar;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi subektlar – O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarida belgilangan tartibda xavfsizlikni ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan hamda xavfsizlik sohasida rahbarlikni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslar va davlat organlari;

jamoat xavfsizligini ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan subektlar - o'z vakolatlari doirasida jamoat xavfsizligini ta'minlashda bevosita ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalar;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini ilmiy-metodik, axborot-tahliliy yo'nalishda ta'minlovchi subektlar – jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy (amaliy) va axborot-tahlil markazlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati muammolarini o'rganuvchi institutlar;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini moddiy-texnik ta'minlashda ishtirok etuvchi subektlar – jamoat xavfsizligini ta'minlash subektlarini zaruriy tibbiy, texnik

jihozlar, qurol-aslaha va maxsus texnikalar, maxsus vositalar va boshqa vositalar bilan ta'minlovchi davlat organlari va nodavlat ishlab chiqarish tashkilotlari;

jamoat xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashuvchi subektlar – jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat organlariga ko'maklashuvchi jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar, volontyorlik harakatlari, “Fidokor yoshlar” patrullik jamoatchilik guruhlari va boshqalar;

Jamoat xavfsizligi bo'yicha Respublika ekspert kengashi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzurida doimiy asosda tashkil etiladigan, jamoat xavfsizligining ta'minlanganligi holatini tizimli ravishda monitoring qilish va baholab borish, Konsepsiya, Strategiya va Yo'l xaritalari ijrosini va boshqa tashkiliy ishlarni muhokama qiluvchi kollegial-maslahat organi.

jamoat tartibi – axloq, ma'naviyat, urf-odat va an'analar normalariga asoslangan jamoat hayotining ma'lum bir tartibini belgilaydigan, fuqarolarning jamoat joylarida birga bo'lganda yurish-turish huquqiy norma va xulq-atvor qoidalari majmui;

jamoat joyi – to'siqsiz kirish (bo'lish) uchun ruxsat etilgan yoki fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ommaviy yig'ilishi mumkin bo'lgan joylarning hududi, binolar, inshootlar va ularning qismlari, shuningdek transport kommunikasiyalari.

Konsepsiyada jamoat xavfsizligi asosiy ikki turga bo'linadi, bular **tabiiy** va **antropogen xavfsizlik**.

Tabiiy xavfsizlik – bu yerda jamoat xavfsizligiga tahdidlarning manbai turli xil tabiiy hodisalar va jarayonlardir. Tabiatdagi xavfning asosiy manbai hali ham inson tomonidan boshqarila olmaydigan tabiat hodisalari (bo'ronlar, zilzilalar, vulqon otilishi va boshqalar) hisoblanadi. **Tabiiy xavfsizlikni ta'minlash** biroz mushkul hisoblanadi, sababi ilm-fan qanchalik rivojlanmasin haligacha tabiat hodisalarini oldindan prognoz qilish yoki oldini olish usullari yaratilmagan.

Antropogen xavfsizlik – to'liq inson omili bog'liq bo'lib, bunda inson bevosita (yoki bilvosita), harakat (yoki harakatsizligi) bilan turli xil tahdidlar keltirib chiqaradi. Tabiiy xavfsizlikdan farqli o'laroq antropogen xavfsizlikka tegishli tahdidlarni oldini olish va bartaraf etish imkoni mavjud.

IV. Jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi asosiy tahdidlar klassifikatsiyasi

Xorijiy tajriba va ilmiy adabiyotlarda jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi asosiy xavf-xatar va tahdidlar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

a) Tabiiy xavfsizlik sohasida:

- 1) yer silkinishi;
- 2) qor, sel ko'chishi;
- 3) suv toshqini;
- 4) yer o'pirilishi va boshqa tabiiy ofatlar.

Tabiiy ofatlar davrida aholini **tezkor xabardor qilish**, **evakuasiya** ishlarini samarali tashkillashtirish, atrof-muhitni loyihalashtirishda mazkur **omillarni inobatga olish** orqali talofatlarni **minimallashtirish** va **oqibatlarini yumshatish** tizimi samaradorligini **oshirish** talab etiladi.

b) Antropogen xavfsizlik sohasida:

1) siyosiy sohadagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:

– davlat hokimiyati organlaridagi **byurokratik to‘siqlar**, qaror qabul qilishdagi **kamchiliklar**, **shaffoflikning pastligi** va **mansabdor shaxslar** uchun **siyosiy javobgarlikning yo‘qligi**;

– Korruptsiya va mansabdor shaxslar o‘rtasidagi **manfaatlar to‘qnashuvining avj olishi**;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlarda **mansab vakolatini suiiste’mol qilish**, fuqarolarning huquqlarini **qonunga xilof ravishda cheklash holatlarining ortishi**;

– odil sudlov tizimidagi **kamchiliklar**, sudlarning insonning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini **to‘liq ta’minlay olmasligi**;

– qonun ijodkorligi, yangi normalarni qabul qilish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda **jamoatchilikning fikrini yetarli darajada inobatga olmaslik**;

– fuqarolarning jamiyat va davlatning **hayotiga befarqligi** va **siyosiy faolligining pastligi**;

– umumiy **jinoyatchilikning** yoki ayrim turdagi **jinoyatlarning keskin o‘sishi**;

– davlat hokimiyati organlariga va uning **institutlariga nisbatan ishonchsizlik** va **norozilik kayfiyatining ortishi**, **davlat xizmatchisi imijini tushib ketishi**;

– noqonuniy tashkilotlarning (shu jumladan diniy, ekstremistik va boshqa tashkilotlarning) faoliyati va boshqalar.

2) iqtisodiy sohadagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:

– muvozanatsiz **iqtisodiy siyosat** va buning oqibatida **aholining ijtimoiy turmush darajasining pasayishi**;

– pul muomalasi, moliyaviy, bank, kredit va valyuta tizimlarining **beqarorlashuvi**, milliy valyutaning **sezilarli darajada qadrsizlanishi**;

– davlat byudjeti daromadlarining, oltin-valyuta **zaxiralarining qisqarishi**, tashqi **qarzlarning o‘sishi**, inflyasiyaning prognoz ko‘rsatkichlaridan **yuqori bo‘lishi**, **kapitalning chiqib ketishi**;

– aholining aksariyat qismi turmush darajasining **keskin pasayishi**, **mulkiy farqlanishining kuchayishi**, turmush darajasi va jamiyatning **ijtimoiy parchalanishi** ortidan **sezilarli qutblanish**;

– xufiyona iqtisodiyotning **yuqori darajasi** va uning **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish** uchun **salbiy oqibatlarini saqlanib qolishi**;

– yer resurslarining **meliorativ holatining yomonlashishi**, **yer, suv va mineral resurslarning ayrim turlarining kamayishi**, qishloq xo‘jaligining texnologik jihatdan **ortda qolishi**, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatidagi asosiy vositalarning **yomonlashuvi**, oziq-ovqat xavfsizligi **tamoyillarining buzilishi**;

– qishloq xo‘jaligi sohalari uchun **iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri**;

– aholini **eng zarur tovarlar** bilan ta’minlash, uning **sifati ustidan nazoratni amalga oshirish sohasida monopoliyaga qarshi siyosatning samarasizligi** va boshqalar.

3) ijtimoiy sohadagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:

– **iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatning buzilishi**;

- (i) iqtisodiy rivojlanish **sur’atining demografik jarayonlar va ijtimoiy infratuzilma** rivojlanishi bilan **nomutanosibli**gi;
 - (ii) **ishsizlikning o’sishi va nazoratsiz mehnat migrasiyasi**;
 - (iii) aholi uchun **sifatli ta’lim, tibbiy xizmat** va boshqa **birlamchi xizmatlardan** foydalanish **imkoniyatlarining cheklanishi**;
 - **inson huquqlari va ijtimoiy adolatning ta’minlanmasligi**;
 - (i) shaxsning qonuniy huquq va **manfaatlarining buzilishi, huquq ustuvorligi qonun ustuvorligidan ortda qolishi**;
 - (ii) davlat organlari va institutlarining inson huquq va erkinliklarini ishonchli ta’minlashdagi **harakatsizligi** yoki **yetarli emasligi**;
 - (iii) aholining ijtimoiy **zaif qatlamlariga** (kam ta’minlanganlar, ayollar, bolalar, nogironlar) nisbatan **adolatsizlik** va **zo’ravonlik holatlarining ortishi**;
 - **sog’liqni saqlash va aholi salomatligi bilan bog’liq muammolarning ortishi**;
 - (i) aholiga tibbiy yordam ko’rsatish **sifati** va **qamrovining pastligi**;
 - (ii) sog’liqni saqlash va sanitariya-epidemiologiya tizimi **samaradorligining pastligi**, zamonaviy **xalqaro standartlarga javob bermasligi**;
 - (iii) OIV, sil, epidemiyalar va boshqa epidemiologik kasalliklarning **keng tarqalishi**;
 - (iv) giyohvandlik, alkogolizm, lugomaniya, jamiyatda nosog’lom turmush tarzining **keng yoyilishi** va ular bilan bog’liq **ijtimoiy muammolar**;
 - (v) o’lim, kasallanish va nogironlik **darajasining ortishi**;
 - **ta’lim va tarbiya sohasidagi kamchiliklar**;
 - (i) ta’lim sifati va aholi **savodxonligining pasayishi**;
 - (ii) iqtidorli yoshlar, ziyolilar va olimlarning **xorijga chiqib ketishi**;
 - (iii) jamiyatning ma’naviy **tanazzuli** va axloqiy **qadriyatlarining yo’qolishi**;
 - (iv) ta’lim sohasidagi korrupsiyaning **kuchayishi**, ta’lim dasturlari **zamon talablariga javob bermasligi**;
 - **ma’naviy-axloqiy qadriyatlarining tanazzulga uchrashi**;
 - (i) aholining, ayniqsa yoshlarning **radikal diniy** va boshqa **buzg’unchi mafkuralar ta’siriga berilishi**;
 - (ii) ekstremizm, terrorizm, separatizmga **moyillikning ortishi**;
 - (iii) axloqiy va ma’naviy asoslar va madaniy qadriyatlarga putur yetkazish, **axloqsizlik, zo’ravonlik** va **shafqatsizlikni** targ’ib qilish, jamiyat a’zolarida **agressiyaning ortishi**;
 - (iv) boshqa din vakillariga nisbatan **murosasizlik g’oyalarini tarqatish, ksenofobiya** va **irqiy murosasizlik**;
 - (v) jamiyatning tashqi mafkuraviy ta’sirlarga tushib qolishi, fuqarolarning o’z vatanidan faxrlanish tuyg’usi, uning ko’p asrlik tarixi, boy **ma’naviy-madaniy, intellektual merosi** va kelajagiga bo’lgan **ishonchining pasayishi**.
- 4) axborot va axborot-mafkuraviy sohasidagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:**
- siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni, fuqarolar tinchligini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni **buzishga qaratilgan turli axborotlarni keng tarqatilishi**;

mamlakatda bo‘layotgan voqea-hodisalar haqida xorijiy ommaviy- axborot vositalari va butunjahon internet tarmog‘i orqali jamoatchilik ongida salbiy fikr uyg‘otish maqsadida to‘g‘risida **noxolis ma’lumotlarni tarqatish**;

milliy axborot makonida xorijiy ommaviy-axborot vositalari hamda turli xil kontent va media xizmatlari **mahsulotlarining ustunlik qilishi**;

ekstremistik va terroristik faoliyatni amalga oshirish, shuningdek transmilliy jinoyatlarning sodir etilishida **axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish**;

milliy va qadriyatlarni yemirishga, axloqsizlik, bir jinslilik va boshqa yod (buzg‘unchi) g‘oyalarni targ‘ib qilishga qaratilgan axborotlarni tarqatishda **ommaviy axborot vositalari** va **axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish**;

bolalarning sog‘lig‘i va hayotiga tahdid soluvchi, ularning ruhiyatini shikastlovchi va hayoti uchun xavf tug‘diruvchi harakatlarga majbur qiluvchi **vayronkor axborotlarni tarqatish**.

4) **texnogen sohadagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:**

ko‘p sonli texnogen favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi;

texnologik xavfli jarayonlarda **eskirgan** va **nosoz uskunalardan foydalanish**;

ishlab chiqarish jarayonida **texnologik standartlar** va **mevorlarga rioya qilmaslik** va texnologik standartlarning **ma’nan eskirganligi**;

xavfli yuklarni **saqlash va tashish qoidalarini buzish**;

tabiiy va texnogen xavfli obektlarda, shuningdek bozorlar va savdo komplekslarida **texnika** hamda **yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilmasligi**;

ishlab chiqarish va turar-joy binolarini qurishda loyiha hujjatlarini va qo‘yilgan qurilish **standarti talablarini buzish** va **boshqalar**.

5) **ekologik (atrof-muhit) sohasidagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:**

Orol **dengizining qurishi**, **suv tanqisligi**, suv havzalarining ekologik **holatining yomonlashishi**, transchegaraviy **ifloslanish** muammosining **kuchayishi** va **ichimlik suvi sifatining pasayishi**;

sanoat va texnogen **ifloslanish**, shuningdek maishiy va sanoat **chiqindilari muammosi**;

qishloq xo‘jaligidagi **ekologik muammolar** va **biologik xavflar**;

ekologik jihatdan xavfli texnologiyalar, moddalar, materiallar va transgen o‘simliklar, odamlar, hayvonlar, o‘simliklar va organizmlar uchun **xavfli patogenlarni** nazoratsiz olib kirilishi, **genetik modifikasiyalangan o‘simliklar**, organizmlar, moddalar va olingan mahsulotlardan **asossiz foydalanish**;

zaharli va ekologik xavfli **chiqindilarni utilizasiya** qilish bo‘yicha **komplekslarning eskirganligi va boshqalar**.

IV. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosati

Konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi **milliy manfaatlar** quyidagilardan iborat ekanligi belgilangan:

jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash;

fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, aholining munosib turmush kechirishlari va kamol topishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish;

milliy-ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlarini va milliy tariximizni saqlab qolish, jamiyatda yod g'oyalar ta'siriga qarshi immunitet hosil qilish;

atrof-muhitni asrash, suv tanqisligi va boshqa ekologik muammolarni hal qilish;

aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, siyosiy hamda ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas'uliyatini oshirish asosida mamlakatda huquqiy jamiyatni barpo etish va mustahkamlash;

jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish orqali O'zbekistonda har 100 ming aholiga jinoyatlar soni MDHga a'zo mamlakatlarning o'rtacha ko'rsatkichidan past holda saqlab turish;

jamiyatda millatlararo va dinlararo munosabatlarni, diniy bag'rikenglik madaniyatini, do'stlik, o'zaro hamkorlik va gumanizmni har tomonlama mustahkamlash;

dunyoda doimiy ravishda kechayotgan o'zgarishlar va ular bilan bog'liq real hamda ehtimoliy tahdidlar sharoitida jamiyatning o'zligini (tili, madaniyati, ijtimoiy tuzilishi, milliy o'ziga xosligi va dinini), ya'ni o'zini o'zi saqlab qolish qobiliyati va salohiyatini mustahkamlash;

aholini sog'lom turmush tarziga keng jalb qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, genofondni saqlash, irsiy, yuqumli va pandemik kasalliklarni oldini olish.

Bundan tashqari, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida **davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari** quyidagilardan iborat:

jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot va axborot-mafkuraviy, texnogen va ekologik xavfsizlik sohasidagi manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash;

jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlash;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirib borish, qonunchilik bazasini mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarida xalq manfaatini e'tiborga olish;

jamoat xavfsizligini ta'minlashda barcha davlat organlari, jamoatchilik birlashmalari va fuqarolik jamiyati institutlarining roli va mas'uliyatini oshirish;

jamoat xavfsizligini ta'minlash jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy davlatlarning **CPTED, Profayling, ODARA, B-SAFER, CRAF, MARAC** kabi ilg'or g'oyalar asosida zamonaviy yondashuvlarni joriy etib borish, shuningdek sohaga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, uchuvchisiz uchadigan apparatlar va robototexnika tizimlarini keng joriy etish;

har qanday ko'rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va unga chek qo'yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o'q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migrasiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;

mahallalarda, bozorlar, savdo komplekslari, ommaviy tadbir o'tkazish joylari, turizm obektlarida va boshqa jamoat joylarida xavfsiz muhitni yaratish choralari ko'rish;

transport infratuzilmasini, transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo‘l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o‘lim bilan bog‘liq holatlarning oldini olish;

ijtimoiy profilaktika obektlarining ijtimoiylashuvini ta‘minlash, shu jumladan ularni kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan jinoyat sodir etilishini oldini olish;

aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatlik favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta‘minlashda aholining ko‘nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish;

voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

aholining energiya resurslari, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar va tibbiy xizmatga bo‘lgan birlamchi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirib borish va daromadlarini birlamchi ehtiyojlardan kam bo‘lmasligini ta‘minlash;

jamoat xavfsizligini ta‘minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta‘minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta‘minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish.

Jamoat xavfsizligi subektlarini quyidagi guruhlariga bo‘lish tavsiya etilmoqda:

a) jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi subektlar:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligi departamenti.

- 4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi.

b) jamoat xavfsizligini ta‘minlashga bevosita mas‘ul bo‘lgan subektlar:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xavfsizlik xizmati;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- 6) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;
- 7) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- 8) O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;
- 9) O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- 10) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi;
- 11) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi;
- 12) O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi;

13) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi;

14) O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi;

15) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi;

16) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi;

17) O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi;

18) O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi;

19) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi;

20) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi;

21) O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;

22) O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi;

23) O‘zbekiston mahallalari uyushmasi;

24) O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi;

25) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;

26) O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi;

27) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri, viloyat hamda tuman hokimliklar;

28) boshqa davlat organlari.

v) jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini ilmiy-metodik, axborot-tahliliy yo‘nalishda ta’minlovchi subektlar:

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rejalashtirish va rivojlanish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash;

2) O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi;

3) Ta’lim muassasalari;

4) Ilmiy-tadqiqot muassasalari;

5) Axborot-tahliliy markazlar;

6) Virtual va Xalq qabulxonalari;

g) jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini moddiy-texnik ta’minlashda ishtirok etuvchi subektlar:

1) Mudofaa sanoati agentligi va uning tarkibidagi korxonalar;

2) Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi va uning huzuridagi "O‘ztextreyd" DUK;

3) Harbiy va ikki maqsadli mahsulotlarni ishlab chiqarish (olib kirish)ga mo‘ljallangan korxonalar;

d) jamoat xavfsizligini ta’minlashga ko‘maklashuvchi subektlar:

1) jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari;

2) jismoniy va yuridik shaxslar;

3) volontyorlik harakatlari, “Fidokor yoshlar” patrullik jamoatchilik guruhlari va boshqalar.

13. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda:

a) **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** – O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafili hisoblanadi, jamoat xavfsizligi sohasidagi

ustuvor vazifalarni belgilaydi, jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat hokimiyati organlarining muvofiqligini ta'minlaydi.

b) **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi** – qonun hujjatlarini qabul qilishda jamiyat manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ta'sirchan Parlament nazoratini o'rnatadi;

v) **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi Jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligi departamenti**– jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatni umumiy muvofiqlashtiradi, nazorat qiladi va boshqaradi;

g) **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi** – jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi, jamoat xavfsizligi subektlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, Konsepsiya, Strategiya va yo'l xaritalari ijrosini nazorat qiluvchi, Jamoat xavfsizligi bo'yicha Respublika ekspert kengashi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi Jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligi departamentining ishchi organi hisoblanadi.

d) Jamoat xavfsizligini sohasidagi vazirlik va idoralar, shuningdek boshqa subektlar jamoat xavfsizligini ta'minlashda o'z vakolatlari va qonunchilikda yuklangan vazifalari doirasida ishtirok etadilar.

V. Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi tomonidan mazkur konsepsiyani ro'yobga chiqarish maqsadida Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha **manzilli Strategiyalar** hamda **dasturlar ishlab chiqiladi**. Strategiya va dasturlarda **aniq muammo**, uni **hal qilish** uchun chora-tadbirlar, **ijro muddati, moliyalashtirish manbasi** va **mas'ul ijrochilar aniq belgilanadi**.

Bunda, **Strategiya va dasturlarda** Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha **huquqiy, tashkiliy-amaliy, ilmiy-uslubiy, raqamlashtirish va boshqa** chora-tadbirlar kiritiladi.

Bunda:

jamoat xavfsizligining **huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishida**, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi qayta ko'rib chiqiladi va takomillashtiriladi, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida “Miting, yig'ilish va namoyishlar to'g'risida”gi, “Ommaviy tadbirlar to'g'risida”gi qonun, “Jamoat xavfsizligiga tahdidlarni baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror loyihalari va boshqa qonunchilik hujjatlari loyihalari ishlab chiqiladi, CPTED konsepsiyasi shaharsozlik kodeksiga va shaharsozlik normalariga singdiriladi, shuningdek qonunchilik bazasi jamoat xavfsizligiga xavf-xatar va tahdidlarga mutanosib takomillashtirib boriladi;

jamoat xavfsizligini **tashkiliy-amaliy ta'minlash yo'nalishida** jamoat xavfsizligini ta'minlash subektlari faoliyatini zamon talabalariga moslashtirishga qaratilgan, tashkiliy o'zgarishlar, jumladan “Police” institutini joriy etish, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar va boshqa subektlarning voqea va hodisalarga tezkor javob berish imkoniyatlarini oshirish, vakolatlarini takomillashtirish, kuch-vositalar taqsimoti va joylashuvini qayta ko'rib chiqishga qaratilgan tashkiliy-amaliy tadbirlar amalga oshiriladi;

jamoat xavfsizligini **ilmiy-uslubiy ta'minlash yo'nalishida** jamoat xavfsizligini ta'minlash jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida xorijiy davlatlarning **CPTED, ODARA, B-SAFER, CRAF, MARAC, Profayling** kabi ilg'or tajribalari, shuningdek, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot xavfsizligi muammolari bo'yicha maqsadli ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshiriladi va joriy etiladi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini **raqamlashtirish yo'nalishida** ishlar **samaradorligi oshiriladi**, jumladan **“Xavfsiz shahar”** konsepsiyasi to'liq joriy etiladi va takomillashtirib boriladi, barcha mahallalarning kirib chiqish joylari, shahar (tuman) markazlari, jamoat va ommaviy tadbir joylari “Face-ID” kameralar bilan qamrab olinadi shuningdek **Profayling va “VLM” texnologiyalari** orqali jinoyatlarni barvaqt aniqlash va tezkor javob berish tizimi yo'lga qo'yiladi, Respublikadagi **jamoat xavfsizligi holatini monitoring qilish** imkonini beruvchi **geoinformatsion xaritasi** yaratiladi va ishga tushiriladi, barcha ma'lumotlar bazalari integratsiya qilinadi va **24/7** sun'iy intellekt tizimi tahlili yo'lga qo'yiladi, barcha davlat organlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish orqali korrupsiyaviy omillar keskin kamaytiriladi.

Strategiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, **dasturlar** Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. **Strategiya** va **dasturlar**da belgilangan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish bo'yicha barcha davlat organlarining birinchi rahbarlariga shaxsiy mas'uliyat yuklanadi.

VI. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natija

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirish orqali:

O'zbekistonning **xavfsiz davlat** sifatidagi **reyting** va **indekslardagi o'rni yanada yaxshilanadi;**

Ekologik, suv, energiya resurslari, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari **hal etiladi;**

jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish orqali O'zbekistonda har 100 ming aholiga jinoyatlar soni MDHga a'zo mamlakatlarning o'rtacha ko'rsatkichidan **past holda saqlab qolinadi;**

“Xavfsiz shahar” konsepsiyasi to'liq tatbiq etiladi, **“Face-ID”** bilan **Profayling va “VLM” texnologiyalari** orqali jinoyatlarni barvaqt **aniqlash va tezkor javob berish tizimi yo'lga qo'yiladi**, Respublikadagi **jamoat xavfsizligi holatini monitoring qilish** imkonini beruvchi **geoinformatsion xaritasi** ishga tushiriladi, **CPTED** konsepsiyasini to'liq joriy etish orqali **mahallalarda xavfsiz muhit yaratiladi;**

aholining huquqiy ongi va madaniyati yuksaltiriladi, sog'lom turmush tarzi singdiriladi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar **yanada mustahkamlanadi;**

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasi xavf-xatar va tahdidlarga **mutanosib ravishda takomillashtirib boriladi;**

pirovardida fuqarolarning tinch-osuda hayotini ta'minlash orqali mamlakatimizning **investitsiyaviy** va **turistik jozibadorligi yanada oshiriladi.**

VII. Monitoring va tizimli nazorat qoidalari;

Konsepsiya, manzilli **Strategiyalar** va **dasturlarning** ijrosi Adliya vazirligi va Hisob palatasi tomonidan ijro intizomi nazoratini ta'minlovchi elektron hujjat aylanish tizimi orqali **qat'iy nazoratga olinadi**.

Konsepsiya, manzilli **Strategiyalar** va **dasturlar** ijrosi **Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlarida muhokama qilinadi** va belgilab olingan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash uchun mas'ul davlat idoralariga yuboriladi.

Konsepsiya, manzilli **Strategiyalar** va **dasturlar** ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar **har chorak yakuni bo'yicha** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi tomonidan **umulashtiriladi** va qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tegishli mas'ul vazirlik (idora)lar va ta'lim (ilmiy-tadqiqot va tahliliy) muassasalariga **maqsadli topshiriqlar beriladi**.

Konsepsiya, manzilli **Strategiyalar** va **dasturlar** ijrosi, jamoat xavfsizligini ta'minlash subektlari **faoliyati har yil yakuni bo'yicha** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan **tanqidiy baholanadi**.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasining ahvoli, amalga oshirilgan ishlarning **natijadorligi**, jamoat xavfsizligiga yuzaga kelayotgan tahdidlar va amalga oshirilishi lozim **bo'lgan ustuvor vazifalar** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig'ilishlarida **ko'rib chiqiladi**.

Jamoat xavfsizligi holati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan **mezonlar va asosiy ko'rsatkichlar (indikatorlar)** asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi tomonidan baholab boriladi.

VIII. Yakunlovchi qoidalar

Konsepsiyada belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar davlat organlari, hokimliklarning davlat byudjeti mablag'lari, byudjetdan tashqari mablag'lari, homiylik mablag'lari, milliy va xorijiy grantlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Konsepsiyada belgilangan chora-tadbirlar uchun moliyaviy manbalarning aniq **belgilanishi** va **ajratilishi uchun javob beradi**

Konsepsiya qoidalari va normalari O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha davlat hokimiyati organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Fikrimizcha, taklif etilayotgan yangi tahrirdagi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi tizimini joriy etishga va bu orqali jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini **oshirishga xizmat qiladi**.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. U.Qodirov, “Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni “inson manfaatlariga xizmat qilish” tamoyilidan kelib chiqib tashkil etish samaradorligi”, <https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6805-jamoat-xavfsizligini-ta-minlash-bo-yicha->

tadbirlarni-%E2%80%9Cinson-manfaatlariga-xizmat-qilish%E2%80%9D-tamoyilidan-kelib-chiqib-tashkil-etish-samaradorligi.html

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni//<https://lex.uz/docs/5749291/> (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son; 16.01.2024 y., 06/24/10/0031-son)

3. <https://worldjusticeproject.org/chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglcle>

4. <https://anticorruption.uz/oz/article/transparency-international-2022-yilgi-korrupsiyani-qabul-qilish-indeksini-elon-qildi>

5. <https://rost24.uz/oz/news/2012>

6. <https://stat.uz/uz///> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlari asosida

7. <https://csec.uz/uz/news/axborot-xavfsizligi-yangiliklari/2024-yilga-kelib-kiber-jinoyatchiliklardan-moliyaviy-zarar/> “Kiberxavfsizlik markazi” DUK

9. <https://stat.uz/uz///> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlari asosida

10. “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligiga mavjud xavf-xatar va tahdidlarga oid ma’lumotnoma”, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, T.-2024-yil.

11. B.I.Matchanova, “Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli”// <https://cyberleninka.ru/article/>

12. “Ayrim davlatlarda sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar oid ma’lumotnoma”, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, T.-2025-yil.

13. [https://uzbekistan.un.org/uz/178016-bmt-inson-xavfsizligi-bo%CA%BCyicha-ko%CA%BCp-tomonlama-sheriklik-trast-jamgarmasining-yillik-hisobot//Birlashgan Millatlar Tashkiloti rasmiy saxifasi](https://uzbekistan.un.org/uz/178016-bmt-inson-xavfsizligi-bo%CA%BCyicha-ko%CA%BCp-tomonlama-sheriklik-trast-jamgarmasining-yillik-hisobot//Birlashgan-Millatlar-Tashkiloti-rasmiy-saxifasi)

14. A.G.Gulamov, N.N.Shamsiyev, «O‘zbekiston Respublikasida suv xavfsizligini ta’minlashning bugungi holati»// “Tizimli tadqiqotlar” ilmiy-tahliliy jurnali, Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi, Toshkent, 2024 yil, B-36.

15. <https://gov.uz/oz/news/view/4035> //

16. <https://gov.uz/oz/agro/news/view/48883>